



Doç. Dr. Esra Nur Tiriya
anısına

ifWT

Institut für die Welt der Türken

VII. ULUSLARARASI TÜRKLERİN DÜNYASI SOSYAL BİLİMLER SEMPOZYUMU

INTERNATIONAL WORLD OF TURKS SYMPOSIUM OF SOCIAL SCIENCE

2-4 Haziran
June 2023 | Prag-ÇEKYA
Prague-CZECHIA



BİLDİRİ KİTABI

EDİTÖR: DR. RAMAZAN ERYILMAZ

**VII. ULUSLARARASI TRKLERİN
DNYASI SOSYAL BİLİMLER
SEMPOZYUMU**

**VII. INTERNATIONAL WORLD OF
TURKS SYMPOSIUM OF SOCIAL
SCIENCES**

BİLDİRİ KİTABI

PROCEEDINGS BOOK

02-04 Haziran/June 2023 Prag-ÇEKYA

Editr

Dr. Ramazan ERYILMAZ

**VII. ULUSLARARASI TRKLERİN DNYASI
SOSYAL BİLİMLER SEMPOZYUMU
BİLDİRİ KİTABI**

**VII. INTERNATIONAL WORLD OF TURKS
SYMPOSIUM OF SOCIAL SCIENCES
PROCEEDINGS BOOK**

Editr / Editor

Dr. Ramazan ERYILMAZ

Kapak Tasarımı / Cover Design

Yavuz Selim KARAHAN

Bu kitap, 2-4 Haziran 2023 tarihinde Trklerin Dnyası Enstits tarafından dzenlenen VII. Uluslararası Trklerin Dnyası Sosyal Bilimler Sempozyumunda sunulan bildirilerin tam metinlerini kapsamaktadır. Tm bildirilerin hukuki ve etik sorumluluęu yazarlarına aittir.

ISBN: 978-625-00-8481-6

Ankara-2023

XX. ASR BOSHLARIDA QO‘LLANILGAN ANTROPONIMLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

CHARACTERISTICS OF ANTHROPONYMS USED AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Zarnigor DAVRONOVA

Uzman, Ali Şîr Nevaî Adını Taşıyan Taşkent Devlet Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi, Özbekistan

zarnigordavronova12@gmail.com

Annotatsiya

Onomastika masalalari har bir davr uchun dolzarb bo‘lib kelgan. O‘zbek nomshunosligi spetsifik taraqqiyot bosqichiga ega. Ayniqsa, XX asr boshlaridagi antroponimlar taraqqiyotini o‘rganish o‘zbek onomastikasi uchun muhim ilmiy xulosalar beradi. XX asr boshlaridagi antroponimlar taraqqiyoti, struktur-semantik xususiyatlarini o‘rganish, tarixiy-etimologik jihatdan va lingvokognitiv tomondan tahlil qilish maqsadi qo‘yilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda XX asr boshlaridagi antroponimlarni tavsiflash, badiiy asarlaridagi antroponimlarni tahlil qilish, statistik, tarixiy-etimologik va lingvokognitiv tahlilini amalga oshirish, struktur jihatdan o‘rganish vazifalari belgilangan. Ushbu maqolada o‘zbek tili antroponimiyasi tizimi umumiy tarzda, onomastik qatlamlarga ko‘ra, mintaqaviy va folklor asarlari onomastikasi nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Shuningdek, boshqa tadqiqotlarning barchasida antroponimlarning ma‘nosi, uni tushunish va talqin qilish yo‘llari umumiy tarzda bayon etilgan. Shu sababli o‘zbek tilidagi antroponimlarni o‘rganishda muayyan shaxsning asarlaridagi antroponimlarni tadqiq qilish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Shu bilan birga, o‘zbek nomshunosligida onomastika bo‘yicha olib borilayotgan ishlar hali yetarli va qoniqarli emas bu sohada hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar hali o‘z yechimini topgani yo‘q. Jumladan, XX asr o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan jadid adabiyoti namoyondalarining asarlarida uchrovchi onomastik birliklarini o‘rganish shular jumlasidandir. Bu borada XX asrda qo‘llanilgan antroponimlarining statistik, etimologik, struktur va lingvokognitiv xususiyatlarini tadqiq qilishdan iborat. XX asr ijodiy muhitida shaxs nomlanish tarzi ochib berilgan Jadid adabiyoti asarlaridagi kishi ismlarining lug‘aviy ma‘nolari va ba‘zi nomlarning qadimiy genetik ildizlari aniqlandi. XX asrda uchrovchi antroponimlarning o‘rni va asarda qo‘llanilishi haqida mulohazalar bayon etildi. Jadid adabiyoti nomoyondalarining uslubida uchrovchi antropoindikatorlar aniqlandi. Badiiy matndagi antroponimlarning lingvognitiv jihatlariga e‘tibor berildi.

Kalit so‘zlar: onomastika, ism, familiya, ota ism, laqab, taxallus, semantik tahlil makonva zamon, milliylik, bosqich.

Abstract

Issues of onomastics have been relevant for every era. Uzbek nomenclature has a specific stage of development. Especially, the study of the development of antroponyms at the beginning of the 20th century provides important scientific conclusions for Uzbek onomastics. The goal is to study the development of antroponyms in the beginning of the 20th century, their structural-semantic features, and to analyze them from a historical-etymological and linguistic-cognitive point of view. In the implementation of this goal, the tasks of describing antroponyms of the beginning of the 20th century, analyzing antroponyms in artistic works, carrying out statistical, historical-etymological and linguo-cognitive analysis, and structural study are defined. In this article, the antroponymy system of the Uzbek language is studied in general, according to onomastic layers, from the point of view of

onomastics of regional and folklore works. Also, in all other studies, the meaning of anthroponyms, ways of understanding and interpreting it are generally described. For this reason, we think it is appropriate to study anthroponyms in the works of a certain person when studying anthroponyms in the Uzbek language. At the same time, the work carried out on onomastics in Uzbek nomenclature is still insufficient and unsatisfactory, and the issues that need to be resolved in this field have not yet been resolved. Among them is the study of onomastic units found in the works of representatives of modern literature, which have their place in Uzbek literature of the 20th century. In this regard, it consists in researching the statistical, etymological, structural and linguocognitive characteristics of anthroponyms used in the 20th century. In the creative environment of the 20th century, the way of naming a person was revealed, the dictionary meanings of personal names in the works of Jadid literature and the ancient genetic roots of some names were determined. Comments on the role of anthroponyms encountered in the 20th century and their use in the work were presented. Anthroponyms found in the style of the ancient literary figures were identified. Attention was paid to the linguistic aspects of anthroponyms in the literary text.

Key words: onomastics, name, surname, patronymic, nickname, semantic analysis space and time, nationality, stage.

XX asr jahon tilshunosligida onomastika yo‘nalishining mustaqil yo‘nalishlaridan biriga aylanib borayotgan davr hisoblanadi. Nomshunoslikka oid lisoniy hodisalarni yirik miqyosda tadqiq etuvchi mazkur soha XXI asrda yanada jadal suratlar bilan rivojlanib, fan oldiga yangi muammolarni qo‘ymoqda. Ana shunday muammolardan biri har bir asarda qo‘llanilgan onomastik materiallarni lingvistik jihatdan tadqiq etishdir. Dunyo tilshunosligida onomastika sohasining pragmalingvistik, lingvokulturologik, etnolingvistik, psixolingvistik va lingvokognitiv xususiyatlarini yoritish soha taraqqiyotini taminlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida nomlarni ilmiy o‘rganish keng yo‘lga qo‘yilgan, mazkur sohaga oid ko‘plab adabiyotlar, jurnallarning muntazam chop qilinishi, bir qator oliy o‘quv yurtlarida onomastika kurslarining o‘qitilishi fikrimizning isbotidir. Jamiyatdagi ijtimoiy siyosiy iqtisodiy, ma‘naviy – ma‘rifiy o‘zgarishlar onomastika sohasining yangi zamonaviy ilmiy nazariy yo‘nalishlarini belgilashni kam o‘rganilgan yoki alohida tadqiq etilmagan onomastik birliklarni ham o‘rganishni kun tartibiga qo‘yilmoqda.

XX asrda, ya‘ni Sho‘rolar davrida o‘zbek tili antroponimlariga, umuman atoqli otlar tizimiga munosabatning ko‘pgina salbiy tomonlari mavjud edi: - ittifoqda bir qator millat va xalqlar kabi o‘zbeklar ruscha familiya, ota ismga zo‘rlab o‘tkazilgan va ular uch shaklli Sistema deb nomlanar edi. Masalan, Tursunova Gulchehra Berdiyevna, Sharipov Tursin To‘xtabayevich kabi shaxsning shaxsiy hujjatlarida o‘zbekcha yozuv uchun ham maxsus joy ajratilmagan edi. Shaxs nomi mavjud hujjatlarda faqat rus tilida yozilardi. Qayd qilingan xatolar o‘zbek fuqarolari ism-shariflarini faqat ruscha imloda yozish holatini tug‘dirdi va o‘zbekcha ismlarning milliy talaffuz shaklini buzib aytish va yozishga zamin hozirladi. Rus tilidan va u orqali chet tillar onomastikasidan kirib kelgan ismlarni o‘zbek qizlari va o‘g‘illariga berish udum bo‘ldi (Klara Svetlana, Marat va boshqalar). Bunday ismlarni “Internatsional nomlar” (baynalmilal ismlar) deb maqtalardi. Shuningdek, Kolxozbek, Savxozbek, Saylovboy, Maya kabi islar “sovetizimlar” o‘zbek onomastikasining yangi qatlami sifatida ma‘qullanardi¹.

Antroponimika sohasida qilingan ishlar haqida Professor E.Begmatov aytganidek: “Atoqli otlarni har tomonlama o‘rganish o‘z tadqiqotlarni kutmoqda”.

O‘zbek antroponimikasida kishilarni familiya va otchestvolari bilan atashga intilishning dastlabki davrlarida bazi o‘zbekcha familiyalar ota ismiga -iy affikisini qo‘shish orqali hosil qilingan masalan: Mirzakalon Ismoilii, Abdulla Qodiriy lekin -iy qo‘shimchasi bilan hosil qilingan o‘zbekcha familiyalar o‘zbek tili onomastikasining 20-30 yillar rivojida ma‘lum darajada qo‘llangan bo‘lishiga qaramay,

¹ Бегматов Э. Киши номлари имлоси. - Тошкент: Фан, 1970.

keyinchalik bu tip familiyalar ruscha uslubda yasalgan familiya hamda otchestvo shakllari tomonidan siqib chiqarilgan.²

O‘zbek onomastikasiga oid tadqiqotlar matnlarini o‘rganganda turli xil muammoli vaziyatlarga ham duch keldik, ma’lumki, o‘zbek tilida Ruscha “ otchestvo” ma’nosida “otasining ismi” iborasi qo‘llanmoqda va turli rasmiy ish qog‘ozlarida ham ushbu termin qo‘llaniladi. Ammo “otasining ismi” tushunchasi bilan ota ismidan yasalgan yangi atoqli ot “otchestvo” farqli narsadir. Shu sababli Ernest Begmatov fikriga qo‘shilgan holda quyidagi xulosaga keldik. Demak, “otchestvo” maxsus yasaladigan (hosil qilinadigan) mustaqil onomastik birlikdir.

Yuqoridagilarni hisobga olib biz “otchestvo” ma’nosida “otaism” terminini tavsiya qilamiz. Bu holda hujjatlardagi “otasining ismi” savoli o‘rnida “otaismi”, “ota ismingiz” savollarini qo‘llash mumkin va unga to‘g‘ri javob olish imkoni tug‘iladi.

Bu o‘rinda shuni takidlash kerakki, keyingi yillarda o‘zbeklar “otchaestvo”ning Ruscha shaklidan voz kechishib uni ota ismidan keyin “o‘g‘li” “qizi” so‘zlarini keltirish orqali yozishadigan bo‘lishdi: Ermatov Ravshan Turdiqul o‘g‘li, Ermatova Dilbar Turdiqul qizi kabi. Bu tip nomlashda maxsus qo‘shimchalar orqali (- ovich, - ovna, - evich, - evna) mustaqil atoqli ot onomastik birlik bo‘lgan ota ism barham topadi va shaxsning kimning farzandi ekani analitik usulda ifodalaniladi. Antroponimlar til taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda o‘sadi va rivojlanadi. Jamiyat hodisalari bilan bog‘liq holda yangi ismlar paydo bo‘ladi, ayrimlari eskirib iste‘moldan chiqadi, biror ism kishilarga 50-100 yil davomida berilmasa, u eskirishi yoki unitilishi mumkin. Jumladan, ayrim tarixiy asarlarda biz uchun g‘ayritabiiy, eskirib qolgan qolgan ismlar uchrab turadi. Bu o‘rinda xalq og‘zaki ijodi na‘munalarida qo‘llanilgan ismlar o‘zining barqarorligi bilan ajralib turishini qayd qilmoq lozim, chunki dostonlar og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga ko‘chib yurganligi, doimiy aytilib va tinglanib kelinganligi uchun ularda eskirgan ismlar deyarli uchramaydi. Xuddi shuningdek, jamiyat taraqqiyotiga bog‘liq ravishda yangi ismlar ham paydo bo‘ldi. Jumladan, o‘zbek tilida, sobiq sovet tuzimi bilan bog‘liq qator nomlar paydo bo‘lishi bunga misol bo‘la oladi : Marks, Mels, Tel‘man va boshqalar...

O‘zbek xalqi, juda bolajon xalqdir. Shu sababli har bir oilada XX asrda 8, 9, 10 nafardan ortiq bolalar bo‘lgan va ularga ism tanlashda bir biriga juda uyqash holda ismlar tanlangan. Bu uyqashlik holati haqida Zulayxo To‘ychiyeva “Uyqash ismlar qatorini yuzaga keltiruvchi omillar“ mavzusidagi maqolasida ko‘rsatib o‘tgan. Navbatdagi yangi tug‘ilgan chaqaloqqa ism qo‘yishda unga uyqash ism tanlanadi. Bu an‘anaga aylangan mana shu udum keyinchalik tug‘ilgan bolalarda ham nom tanlashda amal qilish muayyan ismlarning uyqash qatorini yuzaga keltiradi.

Uyqash nom qatorining yuzaga kelishi quyidagi ko‘rinishlarga ega:

1. Aka ismi bilan ukalar ismining uyqashligi.
2. Opa ismi bilan singillar yoki ukalar ismining uyqashligi.
3. Ona ismi bilan qiz farzand ismining uyqashligi.
4. Ota ismi bilan o‘g‘il farzandlar ismining uyqashligi.
5. Oila farzandlar yoki biror farzand ismining yaqin qarindoshlar bolalarining ismi bilan uyqashligi.
6. Oiladagi bolalar yoki biror bola ismining biror yaqin qarindoshlar (xola, amma, tog‘a, amaki) ismi bilan uyqash bo‘lishi.
7. Nevaralar, evara ismining bobo, buvi ismi bilan uyqash bo‘lishi.

Uyqash ismlar bizga ,avvalo, o‘sha bolaning kimning avlodi ekanligini bilishimizga yordam beradi, bu uyqash ismlar o‘zbek milliy mentalitetining namoyon bo‘lishini belgilashga imkon yaratadi.

² Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис....канд. филол. наук. - Ташкент: Фан, 1965.

Olib borilgan kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, deyarli barcha ismlarning yaratilish jarayonida, insonning, ya'ni bolaga ism qo'yuvchilarning (nominatorlarning) istaklari, orzulari o'z ifodasini topadi. O'zbek ismlarida mana shu orzu-istaklar namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin:

1. Ism qo'yuvchi bolaning ba'zi kasalliklardan forig' bo'lishi va sog'ayib ketishini istashadi: So'nmasoy, Yovqochar.
2. Ism qo'yuvchi bolaga ko'z tegmasin deb xunuk, ma'noli, salbiy so'zlardan foydalanishadi: Sarimsoq, Tuproqvoy.
3. Ism qo'yuvchi oiladagi bolalarning kasallanishi va o'limi sabab bo'lgan omillardan himoya qilish maqsadida tug'ilgan bolani asrash va dushman kuchlarni adashtirish maqsadida: Adash, Yangilish, Istamas.
4. Ism beruvchini shodligini bildiruvchi ismlar: Sevinch, Suyunbek, Quvonchbek.
5. Ism qo'yuvchi farzandni orziqib kutganini bildiruvchi ismlar: Tilovberdi, Kelsinoy.
6. Ism qo'yuvchi kelajakda bolaning boy badavlat bo'lishini istasa: Boybola, Boybo'lsin.
7. Nominator bola ulg'ayib barchaga manzur bo'ladigan inson bo'lib kamol topishini istasa: Suyarqul, Elbek va boshqa sabablarga ko'ra ismlar tanlanadi.

Keltirilgan ism guruhlaridan ularni yuzaga keltiruvchi va shaxs atoqli oti sifatida tanlanish motivlaridan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tili leksikasini tarkibiy qismi bo'lgan ismlarda o'zbek xalqining urf-odatlarini, ma'daniyati, ishonch-e'tiqodi, so'z sehriga ishonish, kundalik turmush-tarzi, o'y-fikrlari – bari namoyon bo'ladi. “Bolaga ism tanlash, ism berish jarayonining mohiyati va asosiy vazifasi shaxslarni bir- biridan ism berish orqali farqlashgina emas, markazida inson turgan butun bir ulkan faoliyatning mahsuli ekanini ko'rsatadi. Antroponimlarni antroposentrik yo'nalishda tadqiq qilishni talab qiladi”.

Shunday qilib, tildagi atoqli otlarni to'plash va ularni ilmiy asosda tekshirish ishi hozigi zamon tilshunosligini muhim aktual masalalari qatoriga kiradi. Bu ayniqsa, o'zbek tilshunosligi uchun zarurdir.

O'zbek xalqining boy tarixiy yozma yodgorliklari fondi bor ularda juda ko'p sonli atoqli otlar qayd etilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi bizgacha yetib kelgandir.

Ismlar boyligi turli tillarda miqdoran turli darajadadir. O'zbek tili ismlar majmuasining nihoyatda boyligi bilan ajralib turadi. Ismlarning miqdoran ko'pligi bu tilda shaxslarning o'zaro farqlash, ajratib ko'rsatish imkoniyatining kuchliligidan dalolat beradi.

Bolaga ism qo'yish ko'rkam, namunali ismlarni tanlashga intilish yaxshi, albatta. Lekin o'zbeklarda ism tanlashning keyingi paytlarda yuzaga kelgan ba'zi xususiyatlari, bir yoqlamalik faqatgina chiroyli” “ko'rkam” nomlar orasidan quvib ketish tilimizdagi ismlar boyligining miqdoran kamayishiga bolani nomlash rasm- rusumlarining siyqasi chiqishiga, tilda bir xil o'xshash ismlarning keng tarqalishiga, natijada jamiyatda bir xil ism bilan ataluvchi shaxslar sonining ko'payib ketishidek salbiy holga olib keladi. Masalan, keying yillarda Alisher, Bahodir, Baxtiyor, Dilbar, Saodat, Sanobar kabi ismlarni qo'yish avj oldi. Natijada bir mahallada, bir maktabda va bir sinfda bir nechta Alisherlar va Bahodirlar paydo bo'ldi.

Umuman olganda, salbiy bo'lgan bu an'ananing yuzaga kelishida ismlar va ism qo'yish odatlari hukmron mafkuraning ma'lum darajada va matbuotning aralashuvi ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunday aralshuv 30-yillardayoq yuzaga keldi, masalan, “Yorqin hayot” jurnalining 1937-yil 9- sonida “Biz topgan otlar” sarlavhasi ostida 107 ism ro'yxati berilgan va bu nomni o'zbeklarning o'g'il va qizlariga qo'yish uchun tavsiya qilingan. Bu ro'yxatga o'zbek xalqi uchun an'anaviy bo'lgan ko'p ismlar kiritilmagan holda Vansetti, Darvin, Dinamo, Klara, Rinat, Elburs kabi ismlar tavsiya etilgan. Bunday holat 1960-1970-yillarga kelib yana avj oldi.

Bunday harakatlar, albatta, o'sha davr tuzimining yo'rig'i edi. Shu harakatlar ma'lum muddat o'zbek ismlari doirasini torayib ketishiga sabab bo'lgan desak, adashmaymiz. Bundan tashqari, bolani nomlashda zaruriy rasm -rusumlar, milliy an'analarning unitilishiga olib keladi.

Muhammadqul Jomurod o'g'li Po'ikan baxshining ham bunday "Po'ikan" deb taxallus tanlashida ruslarning ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Oktyabr inqilobidan keyin, Po'ikan shoir ko'plab hamyurtlari kabi sovuq Sibir o'rmonlariga mardikorlikka safarbar qilinadi. Ma'lumotlarga qaraganda, Muhammadqul "Po'ikan" taxallusini mardikorlikda yurgan paytida tanlagan. Bu jumla "polk" so'ziga "an" qo'shimchasi qo'shiluvidan hosil bo'lgan degan qarashlar bor. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra "Po'ikan" qadimgi mo'g'ulchada "ulug'", "katta" ma'nolarini anglatadi. Baxshi shoir shu sababli bu so'zni taxallus sifatida qabul qilgan bo'lishi mumkin.

Qadimda turkiy xalqlarda bolaga ism berishda yaxshi odatlar bo'lgan. Masalan, chaqaloqqa u mansub bo'lgan avlod yoki urug'da hayot bo'lgan kishilarning ismini qo'yilmasligi kerak. Chunki o'xshash ism o'sha avlod kishilarini bir-biridan farqlashga halaqit beradi. Shu sababli chaqaloqqa ism berayotganda avlodagi hayot kishilarning nomlari birma-bir eslab chiqiladi va bolaga ular ismiga o'xshamaydigan nom beriladi. Agar bunday odatlarga beparvo bo'lsa, qarindoshlar orasida norozilik, va janjallarga sabab bo'ladi. Chunki bu hol ismning oldingi egasidan "o'g'irlab" olingan deb baholanadi. Bu odat ma'lum darajada ota-onalarning yangi ismlarni axtarishga, yangi ismlarni ijod qilishga undaydi. Hozirda esa mana shunday odatlar yo'qolib ketayotganini ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy ismlar axtarish faqatgina chiroylilik mezoni bilan o'lchash qadimgi mazmundor ismlarni unitilishiga olib kelinmoqda. Masalan, Toshboy, Tirkash, Temirboy, Turdiqul singari ismlar ma'nolarini va ularni, nima maqsadda qo'yishni bilmaslik oqibatida ismlarning bugungi kunda unitilib ketayotganini ko'rishimiz mumkin.

XX asrda ya'ni ruslarning hayotimizga tasir doirasi kengayganligi tufayli ba'zi milliy ismlarning shakllarida loqaydliklarga duch kelyapmiz. Ba'zi o'zbekcha nomlarning ruscha buzilgan shaklini "ijod qilish" da ko'rinadi. Natijada ba'zi ota-onalar o'z farzandining, yoshlar esa o'z do'stlari, o'rtoqlarining aka-ukalarining ismlarini Alik (Alisher, Ahmad) Gulya (Gulnora, Gulandom) Sasha (Sobir, Sadridin) Raya (Rohila, Ruxsora) va boshqa shakllarda buzib aytishadi. Bunday "nombuzarlik" ona tiliga nisbatan hurmatsizlik deb tushuniladi.

Yuqoridagi ismlar haqida Said Ahmad "Shu yili tug'ilgan qizlarga Stalina, o'g'il bolalarga esa Mels, Marlen degan ismlar qo'yilardi deb yozgan"³

Erkin Vohidov shu ahvoldan ranjigan holda quyidagi misrani yozgan:

Mirzolar – Mishaga aylangan yillar,

Suvonlar – Sashaga aylangan yillar,

Alisher – Alikka, Kamol – Kolyaga,

Muattar – Mashaga aylangan yillar

Men sizdan o'kinib yashayman.

Sevara Toshaliyeva o'zining nomzodlik dissertatsiyasida "Toshkent oqshomi" gazetasidan olingan quyidagi satrlarni keltirgan: "Tesda qiziq qo'shnisining qo'lidagi igna bilan yozilgan "Erik" so'zini ko'rib ajablandi.

- Erkinning ruschasi. Ponyali? – dedi qo'shni.

- Ponyalikka ponyali-ku, ammo unda O'rinboyni "O'rik" Eshmatvoyni "Eshik" kaminaniki "Teshik" bo'lar ekan-da-a? "

O'zbek tili o'zga tillardan oddiy so'zlargina emas, balki atoqli otlar ham kirib keldi. Hozirgi o'zbek tilidagi bir qancha ismlar asli arabcha yoki fors-tojikch, qisman mo'g'ulcha nomlardir. O'zga millatlar ismlariga taqlid qilish bizning davrimizda ham yuz bermoqda, natijada o'zbek ismlari orasida jahonning turli tillariga mansub nomlar paydo bo'lmoqda. Kishiga ism tanlashda faqatgina xohish, istak, orzu-umid, ayniqsa, mafkuraviy qarashlarga tayanishning o'zi yetmaydi, balki tanlanayotgan

³ Ўзбекистон адабиёти ва сан'ати газетаси, 1997. – 6 б.

ismning aytilishi va yozilishining, undan familiya va ota ismi yasashning qulayligiga ham e'tibor bermoq kerak deb o'ylaymiz.

O'tmishda o'zbeklarda familiya va ota ismlari ommaviy udum bo'lmagan, kishini unga qo'yilgan nomi bilan atashgan: Tursun, Unsin singari oddiy xalq orasida kishini uning ismi va laqabi bilan yoki urug'i nomi bilan atashgan: Rahim cho'loq, Xudoyor mang'it, Eshdavlat kenagas. Ayniqsa, kishi ismiga avlodiy-an'anaviy unvonlar va nisbatlar nomini, kasb-kor yoki mansab urug'-avlod va sulola nomini ifoda qiluvchi atamalarni qo'shib aytish va murojaat qilish keng udum bo'lgan.

Shaxs nomlashning o'zbeklarda ommalashgan usullaridan biri ota ismidan keyin "o'g'li", "qizi" so'zlarini keltirishdir. Masalan, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. Kishini uning otasi nomiga ishora qilib atash turkiy xalqlarning eng qadimgi yodgorligi bo'lmish "O'rxun-Enasoy" yodgorliklarida Bayna Sangnun o'g'li Qulug' singari atalishlar uchraydi. Bu usuldagi nomlar keyingi davrlarda ham udum bo'ldi. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Hamza Sultonning o'g'li Mamaq Sulton, Xoja Husaynbekning qizi Ulug' og'a singari.

XX asrning 20-30- yillarida o'zbeklarning familiyalari, asosan, Ahmad Fozil o'g'li, Hakima Fozil qiz tarzida yuritiladi. Shuningdek, bu davrda ziyolilar orasida qisman sodda Hamza Hakimzoda Niyoziy, iy, viy, iya, viya Abdulla Avloniy Mirzakalon Ismoilii, Mazayana Alaviya qo'shimchalari orqali ism va familiyalar yasalgan. Bazida qo'shimchalarsiz ham yasalgan: Sulton Jo'ra, Salim Karim, Parda Tursun va b.

Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklarda kishining ismiga hurmat bilan qarash, bu shaxsning o'ziga hurmat-ehtirom belgisi fatida qaralgan. Bunday hurmatni izhor etishning asosiy yo'li esa ular nazarida kishi ismini aytib chaqirmaslikdir. Shunga ko'ra, turkiy xalqlarning ko'pchiligida yoshlar o'zidan kattalarning, xotin esa erning, shuningdek, er xotinning, kelin erning tuqqan va tug'ishganlarining ismini atashi mumkin emasligi haqida rasm -rusumlar bo'lgan. O'zbeklarda qoidaga ko'ra yosh bola o'z otanasiga, shuningdek, o'zidan katta yoshdagi qarindosh urug'larining ismini aytib chaqirishi mumkin emas, ularning ismi o'rniga tog'a, xola, bobo, buvi shaklida murojaat qiladi. Er- xotinlar bir-birlariga ismini aytmasdan bolalaridan birining ismi bilan chaqirishadi. Mening bobom va buvim ham bir-birlarini ismlari bilan emas, katta amakimlarning ismlari bilan murojaat qiladilar. Bunday udumlarga, ayniqsa, ayollar amal qilishadi. Erlarining ismini aytmasdan bolalaridan birining ismi bilan chaqirishadi. "falonchining dadasi" "qizimning dadasi" shaklida. O'zbek oilalarida ayol kishining o'z qaynonasining, shuningdek erining yaqin- qarindosh urug'larining ismini aytish mumkin emasligi bunga yaqqol misol bo'ladi. Kishi ismi o'rnida qo'llanuvchi avfimistik so'z va iboralar, ayniqsa, kelinlar nutqida ko'plab uchraydi. Bunday odat dunyodagi juda ko'p xalqlarda keng tarqalgan ikki xil tasavvur bilan aloqadordir. Birinchidan, kishining ismini yashirishga harakat qilinadi, ikkinchidan esa ismni talaffuz qilmaslik hurmat deb tushuniladi.⁴ O'zbeklar hayotiga ruslarning ta'siri bilan yuqoridagi urf-odatlar o'zgarishiga olib kelindi. O'zbek yoshlari orasida er-u xotinlarning bir-biriga ismini aytib chaqirish urf bo'ldi. Lekin bunda ham ayollar erining ismiga "aka" so'zini qo'shib "falonchi akam", "falonchi akangiz" tarzida aytish keng tarqaldi. O'zbek tilida Ruscha uslubda yasalgan familiya va otchetvolarning paydo bo'lganligi erkaklarning ayollarga, ayollarning erkaklarga murojaat qilishning yangicha turlari paydo qilindi. Masalan, Ahmad Ahmadovich, E'tibor Ibrohimovna shakllari paydo bo'ldi.

Jadid adabiyoti namoyndasi Cho'lpon ham o'zining "Kecha va Kunduz" romanida o'zbeklarning o'z xotinini - o'z halol juftini qizi yo o'g'lining nomi bilan atab chaqiradi. O'z xotinining ismini aytib chaqirish yaramaydi Xotinining ismi Mariyam, qizining ismi Xadicha bo'lsa mo'min- musulmon: - sharmi-hayo yuzasidan bo'lsamikan? - xotinini "Xadicha" deb chaqiradi. Aksar ona-bola baravar "labbay" deydi. Shunda oilaning haqiqiy egasi bo'lgan ota "Kattangni aytaman, kattangni!" deydi asardagi Razzoq so'fi o'zining xotinini ismi Qurvonbibini deb emas unga Fitna deya laqab qo'yib chaqirishini asarda keltirib o'tgan.

⁴ Бегматов Э. Номлар ва Одамлар. – Тошкент: Фан 1966. – 26 б.

Xulosa qilib shuni aytamizki, XX asr boshlarida qoʻllanilgan anroponimlar boshqa davrlardagi antroponimlardan tubdan farq qiladi. Chunki, bu davrda jadid ijodkorlari tomonidan tilimizning sofligini saqlab qolish uchun harakat qilinganligini koʻrishimiz mumkin soʻzimizning oxirini Antroponimika sohasida qilingan ishlar haqida Professor E.Begmatov aytganidek: “Atoqli otlarni har tomonlama oʻrganish oʻz tadqiqotlarni kutmoqda”.

References

1. Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: “Oʻzbekiston” 2014 y 174b
2. Begmatov E. Ism chiroyi. –Toshkent: Fan, 1994. 90 b.
3. Begmatov E. Oʻzbek ismlari maʼnosi. –Toshkent: 1998. 116 b.
4. Begmatov E., Kenjayeva S. Oʻzbek ismlari maʼnosi / Oʻquv izohli lugʻat. –Toshkent: “Fan”, 2007. 94 b.1
5. Ernest Begmatov. Oʻzbek ismlari Qomuslar Bosh tahririyati. – Toshkent 1991
6. Begmatov E. Nomlar va odamlar – Toshkent .: Fan, 1966.- 65b
7. Choʻlpon “Kecha va Kunduz”. Toshkent.: Ilm ziyo, 2019. – 285.
8. Ernest Begmatov. Oʻzbek tili antraponimikasi f.f.nomzodi...diss. – Toshkent, 1965. -480.
9. Yoqubov Sharifjon Navoiy asarlar onomastikasi f.f.nom diss.... – Toshkent, 1994
10. Sattorov Gʻaffor Oʻzbek ismlarining turkiy qatlami f.f.nom diss... – Toshkent, 19
11. Xusanov Nishonboy. XV asr oʻzbek adabiy yodgorliklaridagi antraponimlarning leksik – semantik va uslubiy xususiyatlari. f.f.dok. diss... – Toshkent, 2000. 243
12. Nuriddinova Raʼno. Oʻzbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili. f.f.nom diss... – Toshkent, 2005
13. Xudaynazarov Irkom. Antraponimlarning til lugʻat tizimidagi oʻrni va ularning semantik – uslubiy xususiyatlari (Ergash Jumanbulbul dostonlari asosida). f.f.nom. diss... - Buxoro, 1998.
14. Kenjayeva Sabohat Eshmamatovna. Oʻzbek antraponimlarining semantik va sotsiolingvistik tadqiqi. f.f.nom diss.... – Toshkent, 2011
15. www. Ziyonet. uz